

## “ALPOMISH” DOSTONI MATNI VA INGLIZCHA TARJIMASIDAGI FITONIMIK LEKSEMALARING LINGVOTEKSTOOGIK TADQIQI

**Normetova Zarnigor Erkin qizi**

*Email: [zarnigornormetova785@gmail.com](mailto:zarnigornormetova785@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Alpomish” dostoni matni, uning inglizcha tarjimasidagi fitonimik leksikalarining lingvotekstologik tahlili va shu bilan birga mazkur dostondagi fitonimik leksemalarning tarjima qilish muammolari o’rganilgan.

Tadqiqot davomida, “Alpomish” dostoni kontekstida fitonimlarning semantik va struktural tahlili olib boriladi, shuningdek, ingliz tilidagi tarjimalaridagi o’zgarishlar va tafovutlar aniqlanadi. Lingvotekstologik yondashuv orqali fitonimlarning ahamiyati va ularning adabiy kontekstdagi roli ko’rib chiqiladi.

Natijalar, fitonimik leksikalar orqali milliy madaniyat va til o’rtasidagi munosabatlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi, shuningdek, tarjima jarayonida madaniy kontekstning ahamiyatini ko’rsatadi. Tadqiqot natijalari nafaqat filologiya sohasida, balki tarjima nazariyasi va madaniyatlararo muloqot uchun ham foydali bo’lishi kutilmoqda.

**Kalit so’zlar:** fitonim, lingvotekstoogik tahlil, fitonimiya, o’simlik, fitonimik leksema, adabiyot, “Alpomish” dostoni.

### **Kirish**

Xalq dostonlari qadimiyatning buyuk bir ehsoni, o’zlari yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an’anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq nihining obyektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh kengayib, goh torayib, ajdoddlardan avlodlarga og’zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorliklar hisoblanadi. Zero, ular xalq milliy tarixining afsonalar qobig‘iga o’ralgan qahramonlik voqealarining o’ziga xos badiiy ifodasıdir. O’zbek xalq qahramonlik dostonlari ham asrlar davomida yaratildi va ularning eng yaxshi namunalari xalq san’atkorlari — baxshilar tomonidan jonli epik an’analarda og’zaki ravishda bizgacha olib kelindi. Bunday dostonlarning qadimiy ildizlari saklar, massagetlar, sug’diyalar, xorazmiylarga mansub urug‘ va qabilalarning afsona va rivoyatlariga borib taqalsa-da, ularning kattagina qismi o’zbeklarning yagona xalq sifatida shakllanishida asos bo’lgan urug‘ va qabilalarda patriarchal-urug‘chilik munosabatlarining yemirilishi va ilk feodal tuzumning yuzaga kela boshlashi davrlarida yaratilgan[1]. Chunki ular xalqimizning o’zligini anglashining buyuk obidalari, uning yagona xalq sifatida shakllanish va birlashish sari tashlagan ulkan qadamining she’riyat sohasidagi tengsiz namunalari sifatida yuzaga keldi. Dostonlar gultoji “Alpomish” xalqimiz yaratgan ana shunday epik she’riyat namunalaridan biri, balki birinchisidir.

**Mavzuning ahamiyati va dolzarbliji.** O’zbekiston va boshqa turkiy xalqlarning og’zaki adabiyoti katta tarixiy, madaniy va lingvistik ahamiyatga ega. “Alpomish” dostoni - o’zbek xalqining eng qadimiy va mashhur epik asarlaridan biri bo’lib, uning tilidagi fitonimik leksemalar xalqning dunyoqarashi, qadriyatları va madaniyati haqida katta ma'lumotlar

beradi. Tarjima jarayonida fitonimik leksemalarning semantik, pragmatik va madaniy jihatlariga e'tibor berish, ayniqsa, dostonlarning global miqyosda qabul qilinishi uchun muhimdir. Ushbu maqola, aynan, "Alpomish" dostoni matni va uning inglizcha tarjimasi o'rtasidagi fitonimik leksemalarni lingvotekstologik nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan[2].

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitoblarida xalqimiz og'zaki ijodini asrlar davomida xalq pedagogikasining tarkibiy qismi bo'lib kelganini ta'kidlab "...xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Agarki, xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo'lsa, "Alpomish" ana shu dostonning shoh bayti desak to'g'ri bo'ladi", – deb alohida ta'kidlaganlar[3].

"Alpomish" dostonining turkiy dostonlar qatorida tutgan o'rni, uning epik timsollar tizimi tadrijidagi mavqeyi, jahon mifologik tafakkur tajribasining "Alpomish" dostoniga ko'rsatgan ta'siri va undan o'rganilgan jihatlar, doston syujetining yaratilishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-falsafiy, etnik-maishiy omillar, asardagi timsollar tizimi va boshqalar tekshirilgan. Bevosita doston badiiyatini o'rganishga qaratilgan ishlar sirasiga M.Saidovning "O'zbek xalq dostonchiligidagi badiiy mahorat masalalari" (T., 1969), I.Yormatovning "O'zbek xalq eposi badiiyati ("Alpomish" dostoni asosida)" (T., 1993), yana shu muallifning "O'zbek xalq qahramonlik eposi badiiyati" (T., 1994), Q.Yo'ldoshevning "Alpomish" talqinlari (T., 2002) kabi ishlarni kiritish mumkin. Ammo dostonni o'qimishlilagini ta'minlagan, xalqimiz qalbidan chuqur o'rinni olgan jihatni uning milliy ruhiyatimiz bilan chambarchas bog'liqligidadir. Holbuki, "Alpomish" millat uchun faqat o'tmish emas, hozir va kelajak hamdir. U – barcha badiiy buyuk asarlar singari abadiyatga daxldor. Shuning uchun asarda milliy o'zlik masalasi, qahramonlar ruhiyatida milliylik masalalarini tekshirish adabiyotshunosligimizning kechiktirib bo'lmas masalalaridan biridir[4].

"Alpomish" dostoni o'zbekning ruhiy olamini anglatish jihatidan tengsiz badiiy obidadadir. Chunki asarda o'zbekka xos o'yash tarzi, ta'sirlanish yo'sini o'z ifodasini topgan. Til butun xalqning ko'p asrlar davomida to'plagan tunganmas xazinasi. Tildagi har bir so'z va so'z o'zining milliyligi va serqatlamligi bilan ham ahamiyat kasb etadi. "Alpomish" dostonidagi har bir ibora, maqol, matalda yashash tarzimiz, qadriyatlarimiz, ma'naviyatimiz, xalqimiz, adabiyotimiz, og'zaki adabiy tilimiz tarixidan dalolat beradi. Dostonning bu serjilo til o'z navbatida xalq tili ta'minlaganida ko'rindi. Xalq tili esa tunganmas boyliklar bulog'i, misli bir xazina[5].

"Alpomish" dostonida qadimda ota-bobolarimiz amal qilgan urf-odatlar, udumlar, go'zal til, jozibali nutq, betakror tasviriy ifodalar bilan yetkazib berilganki, bugungi yoshlarimizga uni singdirish, ularni bu udumlar bilan tanishtirish o'zlikni anglashga undash bilan birga, xalq tili qudratini ham his etishga xizmat qiladi. Milliy ruh yaqqol aks etgan asarlarda personajlarning xatti-harakatilari, o'ylari, sezimlari faqat muayyan millat vakiliga mansub ekanligi bilamiz.

Zamonaviy nobadiiy adabiyotda fitonimik lug'atga oid ko'plab asarlar mavjud turli tillarda va jahon lingvomadaniyatlarida tahlil qiladi. Ilmiy maqolalar hodisalarni tasvirlaydi va juda katta bo'lismiga qaramay fitonimlarni o'rganish sohasidagi maqolalar soni, uning to'liq bir ma'noli ta'rifini berishga harakat qiladi. Va, holbuki ba'zi olimlar ularni terminologik tizimga, boshqalari esa bunday lug'atni nomenklaturaga kiritadilar. U yerda shuningdek, fitonimlar bir qator terminologik belgilarga ega bo'lib, denotatsiya bilan barqaror bog'langan va leksika-semantik guruhning umumiy so'ziga ega. Fitonimiya bir xil semantik leksemalarning bog'lovchisi sifatida qaraladi yaqinlik, yaxlit semantik xususiyatga ega bo'lib, assotsiativ ravishda ajratilgan tafsilotlarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, fitonimlar, kabi o'simlik dunyosining qo'shimcha lingvistik kontekst belgisi sifatida nafaqat muhim leksemalar, balki pragmatik va baholovchi ham paydo bo'ladi. Ona tilida so'zlashuvchining ongida komponent. Agar biz fitonimni generativ element yoki o'simlik sarlavhasi sifatida oladigan bo'lsak, unda mumkin bu leksik-semantik guruhdagi leksik to'plamni ajrating. Zamonaviy tadqiqotlarning fanlararo tabiatini tilni egallashi, qayta ko'rib chiqish va tushunishni ta'minlaydi barcha madaniy va lingvistik merosni aks ettiradi[6].

"Alpomish" dostonida daraxtlar ko'pincha qahramonlarning kuchi, jasorati va haqiqatga bo'lgan ishonchining ramzi sifatida ishlataladi. Misol uchun, "qoraqarag'ay" daraxti, qahramonlarning jasoratini va kuchini tasvirlashda ishlataligan. Tarjimada bu daraxtning ramziy ahamiyatini saqlab qolish juda muhimdir, chunki bu o'simlik o'zbek madaniyatida boshqa o'simliklardan farq qiladi va o'ziga xos ma'no kasb etadi. "Alpomish" dostonidagi ba'zi hayvonlar, masalan, otlar, ajdarlar yoki bo'rilar, kuch va iroda ramzlari sifatida ishlataladi. Bu hayvonlarning har biri qahramonlarning ichki holatlari yoki jangdag'i kuchlarini tasvirlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Tarjimada bu hayvonlarning ramziy ma'nosini saqlab qolish juda muhimdir, chunki ular dostonning muhim badiiy qismlarini tashkil etadi[7].

"Alpomish" dostonida o'simliklar va tabiat unsurlari ko'plab figurativ ma'nolarga ega. Masalan:

O'rmon yoki daraxtlar ko'pincha qahramonlarning qiyinchiliklarni yengishi yoki kuchini ifodalaydi. Daraxtlar, ayniqsa, madaniy ramz sifatida, jahonshumul ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, o'rmon yoki daraxtning qahramonlarning yo'l-yo'rig'ini belgilashi, ko'pincha uni tarbiya va ma'naviyat bilan bog'lashadi.

"Alpomish" dostonida gul yoki gullar ko'pincha go'zallik va ehtiyyotkorlikni, shuningdek, ba'zan sevgi va muhabbatni ifodalaydi. Ularning tarjimasi madaniy kontekstdan kelib chiqqan holda o'zgaradi, chunki turli xalqlarda gul va uning ramzlari turlicha tushuniladi.

Hayvonlar ham dostonning fitonimik unsurlari sifatida mavjud bo'lib, ular qahramonlar va tabiat bilan bog'liq aloqalarni, kuch va iroda ramzlarini bildiradi. Masalan, bo'rilar, ajdarlar, otlar yoki boshqa yovvoyi hayvonlar, ularning xususiyatlari orqali qahramonning salohiyati va sifatlarini ta'riflashda ishlataladi.

Ularni to'g'ri tarjima qilishda, ularning asl ma'nosini va madaniy, tarixiy kontekstini hisobga olish zarur. Masalan, biror o'simlik yoki hayvonni tarjima qilayotganda, uning o'sha davr madaniyatidagi ramziy ahamiyatini saqlab qolish muhim. Ko'plab fitonimik leksemalar

"Alpomish" dostonida allegorik va ramziy ma'nolarga ega. Daraxt yoki o'simliklar ko'pincha qahramonlarning kuchini yoki yo'lini belgilashda ishlatiladi. Bunday so'zlarni tarjima qilishda ularning ramziy ma'nolarini saqlab qolish kerak, lekin boshqa tillarda bu ma'nolarni tushunish qiyin bo'lishi mumkin[8].

"Alpomish" dostoni o'zbek xalq og'zaki ijodining noyob namunasi bo'lib, undagi fitonimik leksemalar (o'simliklar, daraxtlar, gullar va boshqalar) tarjima qilishda bir qator muammolar mavjud. Bu muammolar quyidagi jihatlardan kelib chiqadi:

- O'simliklar va fitonimlar har bir xalqning madaniyatida o'ziga xos ahamiyatga ega. Tarjima jarayonida ularning ma'naviy va madaniy kontekstini hisobga olish zarur, aks holda ma'no yo'qolishi mumkin.

- Ba'zi fitonimik leksemalar o'zbek tilida aniq va o'ziga xos bo'lishi mumkin, lekin boshqa tillarda bunday aniq atama mavjud emas. Bunday holatlarda tarjimon mos keladigan ekvivalentni topishi yoki tushuntirish berishi kerak.

- O'simliklarning bir necha xil ma'nolari va tasvirlari bo'lishi mumkin. Masalan, bir o'simlikning go'zalligi yoki dori-darmon sifatida ko'rsatilishi, tarjimada bu jihatlarni ham ifodalashni talab qiladi.

- "Alpomish" dostoni o'ziga xos badiiy uslubga ega. Fitonimik leksemalarni tarjima qilishda badiiy ta'sirni saqlab qolish, rang-baranglik va his-tuyg'ularni yetkazish muhimdir.

- O'simliklarning ilmiy va xalqona nomlari o'tasida farqlar bo'lishi mumkin. Tarjimon ilmiy nomlarni bilishi va ularni xalq tilida ishlatiladigan terminlar bilan bog'lash kerak.

Fitonimlarni tarjima qilish jarayonidagi muammolarni hal etish uchun tarjimon o'zbek madaniyati va tabiatini chuqur bilishi, shuningdek, boshqa tillarning leksikasini yaxshi tushunishi lozim. Shuningdek, o'simliklar haqidagi ma'lumotlarni to'plab, ularning o'zaro bog'liqligini hisobga olish kerak. Tarjima jarayonida bu muammolarni hal etish uchun tarjimon o'simliklarning madaniy, badiiy va ilmiy kontekstlarini chuqur bilishi zarur. Shuningdek, o'simliklar haqidagi zamonaviy bilimlar va terminologiyalardan foydalanish muhimdir.

"Alpomish"ning tarjimasida fitonimik leksemalar boshqa madaniyatga moslashtirilishi yoki boshqacha ifodalangan bo'lishi mumkin. Masalan, bir xalqning o'simliklarga bo'lgan munosabati boshqa bir xalqnikiga nisbatan farq qiladi, shuning uchun tarjimonlar ba'zi fitonimik iboralarni o'zgartirishga yoki ekvivalent so'zlar bilan almashtirishga majbur bo'lishi mumkin. Misol uchun, o'zbek xalqining an'anaviy "qora qolgan o'rmon" tasviri, ingliz tiliga tarjima qilganda, "dark forest" yoki "dense jungle" tarzida berilishi mumkin.

Fitonimik leksemalar ko'pincha metaforik ma'nolarni ifodalashda ishlatiladi. Masalan, "toshdek qattiq" yoki "gullar kabi porlagan" kabi ifodalar. Tarjimada bu metaforik tasvirlar boshqacha tilda ifodalanganida, ularning original tasvirlar bilan hamohangligini saqlashga harakat qilinadi. O'zbek tilidagi fitonimik leksemalar ko'plab tabiiy elementlar va o'simliklar nomlari asosida shakllangan. "Alpomish" dostoni kontekstida bu so'zlar doimo qahramonning ruhiy holati yoki jangovar holatini tasvirlashda ishlatiladi. Fitonimik leksemalar tarjimada tilga xos farqlarni ko'rsatadi. Misol uchun, o'zbek tilida biror bir o'simlik yoki daraxtning nomi bilan bog'liq bo'lgan ma'no ingliz tiliga to'g'ri kelmasligi

mumkin. O'zbek folklorida o'simliklar ko'pincha samimiyligi va milliy ma'nolarni o'zida jamlagan bo'lsa, boshqa tillarda bunday ma'no ko'pincha yo'qoladi yoki boshqacha shaklda ifodalanadi.

Xulosa. "Alpomish" dostoni va uning inglizcha tarjimasidagi fitonimik leksemalarning lingvotekstologik tadqiqoti bir qator muhim xulosalarga olib keladi:

- Doston ichidagi o'simlik nomlari nafaqat tabiiy muhitni aks ettiradi, balki xalq tabobati va madaniyatidagi ahamiyatini ham ochib beradi. Har bir fitonim o'ziga xos ma'no va ramzga ega bo'lib, dostonning ruhini yoritadi.

- Ingliz tiliga tarjima jarayonida fitonimlarning ma'nosini va konteksti ba'zida yo'qolishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Bu dostonning o'ziga xosligini va madaniy o'ziga xosligini yo'qotish xavfini tug'diradi.

- Dostonning til va uslubi uning mifologik va tarixiy qatlamlarini aks ettiradi. Fitonimik leksemalar orqali tilning boyligi va ijtimoiy-historik konteksti yanada ravshan bo'ladi.

- O'zbek madaniyati va an'analarini ifodalovchi fitonimlar orqali xalqning hayot tarzi, qadriyatlari va e'tiqodlari namoyon bo'ladi. Bu, o'z navbatida, dostonning xalq hayotidagi o'rnnini ko'rsatadi.

- O'zbek va ingliz versiyalaridagi fitonimlar orasidagi farq va o'xshashliklarni o'rganish, madaniyatlararo muloqot va tushunish uchun muhimdir.

Umuman olganda, "Alpomish" dostoni va uning tarjimasidagi fitonimik leksemalar orqali nafaqat til, balki madaniyat va an'analarini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Bu tadqiqot xalq folkloreining boyligi va xilma-xilligini yoritadi. "Alpomish" dostoni va uning tarjimasida fitonimik leksemalarning lingvotekstologik tahlili orqali o'zbek adabiyotining boyligini, madaniy kontekstlarni va tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni chuqurroq anglash mumkin. Bunday tahlil asarning yanada chuqurroq ma'nosini ochib beradi va o'quvchilarga uning tarixi va madaniyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Yormatov I. O'zbek qahramonlik eposi badiiyati. – T.: Toshkent, 1994.
3. Yormatov I. O'zbek xalq eposi badiiyati ("Alpomish" dostoni asosida). – T.: Toshkent, 1993.
4. Safarova H. Yozma adabiyot va folklor. – T.: Buxoro, 2018.
5. Turdimov Sh, Tilavov A. O'zbek folklori. – T.: Toshkent, 2016.
6. Alpomish. (O'zbek xalq qahramonlik dostoni). – Sharq nashriyot matbaa konserni tahriri. – T.: Toshkent, 2010.
7. Бозоров М. Проблемы перевода лексических параллелизмов и ложных эквивалентов. Дисс. в форме научного доклада на соиск. уч. степ, д-ра филол. наук. – Т.: 1985. – С. 242;
8. Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов /. – Тошкент: "Шарқ" нашриёти, 1998. – 400 б.